

Sadullayeva Vazira Ismatovna

Buxoro viloyat pedagogik mahorat markazi
ijtimoiy- iqtisodiy fanlar metodikasi kafedrası
o'qituvchisi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
vazirasadullaeva85@gmail.com

BUXORO AMIRLIGIDA TA'LIM TIZIMI MASALALARI

Annotatsiya. Maqolada Buxoro amirligi davrida ta'lim tizimi maktab va madrasalar faoliyati, ta'lim va ilm-fanga ham diniy nuqtayi nazardan baho berilganligi ochib berilgan. Maktab dasturlari, muallimlar maoshi, qiz bolalarga otinoyi uyida ochilgan maktablarda ta'lim olinishi yo'lga qo'yilgani haqidagi ma'lumotlar kiritilgan. Buxoro madrasalarida nafaqat amirlikdagi yoshlar, balki Rossiyaning musulmon o'lkalari, Xiva xonligi va Qo'qon xonligidan ham ko'plab talabalar kelib tahsil olganlar. Mang'itlar davrida madrasa talabalarini tajriba almashish, malaka oshirish uchun Turkiya, Hindiston va boshqa musulmon o'lkalariga o'qishga yuborilgan.

Kalit so'zlar: Mutaassiblar, Mulla Shoh, Abdullaxoja, Nadr Vays, Mir Do'stimbiy, Darvozai O'g'lon, Kokilai kalon, Mo'llayon, Ko'yi xonaqoh, Chor baqqoli, "Hidoyai sharif", tafsir, hadis, fiqh, kalom, usul, sarf-u nahvdan, shariat ilmlari, shuningdek, ilmi hikmat (mantiq).

ПРОБЛЕМЫ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ

Аннотация. В статье раскрывается, что в период Бухарского эмирата образовательная система, деятельность школ и медресе, образование и наука оценивались с религиозной точки зрения. Приведены сведения о школьных программах, зарплатах учителей, а также о том, что девочкам разрешено обучаться в школах. В бухарские медресе приезжало учиться много учеников не только из эмирата, но и из мусульманских земель России, Хивинского ханства и Кокандского ханства. В эпоху Мангыта учеников медресе отправляли в Турцию, Индию и другие мусульманские страны для обмена опытом и повышения квалификации.

Ключевые слова: Мутаассиб, Мулла Шах, Абдуллаксойя, Надр Ваус, Мир Достимбиу, Дарвозай Оглон, Кокилай калон, Муллаон, Коуи Хонако, Чор Бакколи, «Хидай Шариф», тафсир, хадис, фикх, калам, усул, сарф-у нахвдан, шариатские науки, а также наука мудрости (логика).

ISSUES OF EDUCATION SYSTEM IN BUKHARA EMIRATE

Annotation. The article reveals that during the Bukhara Emirate, the educational system, activities of schools and madrasahs, education and science were evaluated from a religious point of view. Information about school programs, teachers' salaries, and the fact that girls are allowed to be educated in schools with increased family size is included. In Bukhara madrasahs, many students came to study not only from the emirate, but also from the Muslim lands of Rossiya, the Khanate of Khiva and the Khanate of Kokand. During the Manghit era, madrasa students were sent to Turkey, India and other Muslim countries to exchange experience and improve their skills.

Key words: Mutaassib, Mulla Shah, Abdullaksoya, Nadr Vaus, Mir Do'stimbiu, Darvozai Oglon, Kokilai kalon, Moullaon, Ko'ui Khonakoh, Chor Bakkoli, "Khiday Sharif", tafsir, hadith, fiqh, kalam, usul, sarf-u nakhvdan, Sharia sciences, as well as science of wisdom (logic).

Kirish. O'zbek xalqi va davlatchiligi tarixida muhim o'rin tutgan Buxoro amirligini 1756-1920-yillarda boshqargan mang'it hukmdorlari davrida mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayoti islom odatlari va shariat qonunlari asosida boshqarildi. Ta'lim va ilm-fanga

ham diniy nuqtayi nazardan baho berildi. Qur'oni Karimda ilm olishning farz ekanligi qayd qilingani mang'itlar davrida ham o'z ahamiyatini yo'qotmadi. Har bir masjid yonida maktablar qurilib, o'g'il bolalar tahsili yo'lga qo'yildi. Qiz bolalar uchun bibixalifa va otinoyilar uyida ochilgan maktablarda ta'lim olinishi yo'lga qo'yildi. Vaqflar, homiylar hamda ota-onalarning in'omlari evaziga maktablar ta'minlanishi, muallimlarning maosh olishi yo'lga qo'yilgan. Bolalar maktab ta'limini o'zlashtirishiga qarab, 4-10 yilda maktabni tugallagan. Har bir maktab bitiruvchisiga madrasa ta'limini olishi mumkin bo'lgan. Ularga turli sun'iy to'siqlar va cheklovlar mavjud bo'lmagan.

Madrasalarda ta'lim olish muddati ham talabani o'quv dasturidagi fanlarni o'zlashtirishiga qarab 7 yildan 20 yilgacha davom etgan. Har bir madrasaning o'quv dasturi alohida bo'lib, o'qishga kirish uchun ayrim shartlar majburiy qilib qo'yilgan. Mang'itlar davrida Buxoro madrasalarida diniy ixtisolashuv yuqori cho'qqiga chiqqan. Madrasalarda nafaqat buxorolik yoshlar, balki Erondan boshqa barcha musulmon davlatlaridan talabalar kelib o'qishi mumkin bo'lgan.

Adabiyotlar tahlili. Ma'lumki, ilm-fan rivojining muhim omillaridan biri mamlakatlarda maorif tizimining qay darajada yo'lga qo'yilgani bilan ifodalanadi. Buxoro amirligida hukmdorlar maorif sohasini doimiy ravishda tartibga solish va isloh qilish yo'lidan bordi. Amirlikda ta'lim tizimi ikki bosqichli bo'lib, bola birinchi bosqichda maktabda umumiy ta'lim olgan, ikkinchi bosqichda madrasalarda o'rta va oliy ta'limni davom ettirar edi.

Maktab guzar masjidlari qoshida, ba'zi madrasalar tarkibida va alohida maxsus binolarda bo'lgan. Ular ikki toifaga ajralar edi. Birinchi toifa o'zining mustaqil qonuniy nizomi asosida faoliyat olib boradigan, ta'lim ishlarida kengroq imtiyoz va imkoniyatlari bor, vaqf mulkiga ega maktablar edi. Mulla Shoh, Abdullaxoja, Nadr Vays, Mir Do'stimbiy, Darvozai O'g'lon, Kokilai kalon, Mo'llayon, Ko'yi xonaqoh, Chor baqqoli darvozasi, Baxrang guzari maktablari shular qatorida turgan[4].

Maktablarda o'quv yili 15-avgustdan boshlanib, 20-martda tugagan, o'quvchilar haftada 6 kun o'qitilgan[3]. O'quv dasturlari XIII asrda yaratilgan bo'lib, XX asr boshlariga qadar amalda bo'lgan.

Buxoro an'anaviy maktablarida o'qitishning 3 usuli – "usuli tahajjiy" (Qur'oni Karimni o'rgatishda qo'llanilgan), "usuli maddiya" (harflarni qo'shish yo'li bilan o'qitish) va "usuli savtiya" mavjud bo'lgan. Buxoro amirligida bo'lgan No'shiravon Yovushev usuli savtiyaga ta'rif berib: "Avvalo, bir kalima zikr qilinur. So'ngra mazkur kalimada necha turli tovush borlig'ini bildirilur. So'ngra ul tovushlarni zikr qiling'on kalimadag'i harflar uzra tahlil qilinur va qayu tovish qayu harfdan chiqg'onliqni tushindirilur... Munda muxlis 3000 turli suratlari ila biluvg'a hojat yo'qdir. Faqat 33 turli harfnigina yod olib, qurshog'a biluv kerakdir. Uch usulning eng osoni ushbu'dir" [2], – deb yozadi.

Buxoro jadidlarining yirik namoyondalaridan biri Abdurauf Fitrat bu tipdagi maktablarni "maktabi qadim" va ularning dars berish usulini esa "tahsili qadim" deb nomlagan. U 1909-yilda yozilgan "Hindistonda bir farangi ila buxoroli mudarrisning jadid maktablari xususida qilgan munozarasi" asarida eski maktablarda xonalarning zahligini, ularni zindonga o'xshashligini, muallimlarning kaltaklashi va haqorat qilishi, ishiga mas'uliyatsizligini ta'riflaydi [5].

Sadridin Ayniyni ham maktabxonalarining torligi, yorug'lik tushmagan darsxonalar haqida kitoblarida yozgan.

Ushbu fikrlardan Abdurauf Fitrat va Sadridin Ayniylar yangiliklar tarafdori sifatida asrlar davomida o'zgarmay kelayotgan maktablarni zamon talablariga moslash fursati yetganini anglagan holda ularni tanqid qilganlarini ko'rish mumkin. Shuni ham qayd qilish kerakki,

XVIII – XX asr boshlarida nafaqat Buxoroda, balki Sharqning ko'plab musulmon o'lkalarida maktablar hashamatli va ko'p xonali bo'lmagan. Keyinchalik zamonaviy maktab ochish uchun boshlangan harakatlar tufayli o'quv binolarining kengligi, shinamligi va boshqa jihatlariga e'tibor qaratildi..

Buxoro amiri saroyidagi 12 muftidan biri mulla Abdurazzoq boshchiligidagi ulamolar bunday maktablarni “kofirlarning ixtirosi” deb, jamiyat va hukumatni unga qarshi kurashishga chaqirgan. Mutaassiblar yangi usul maktablariga qarshi ikki asosni ko‘tarib chiqadilar:

1. Maktabda ta‘lim shakli musulmoncha emas, rus va Yevropacha usulga yaqin;
2. Usuli jadid maktablari islomning asosiga javob bera olmaydi, ularda din o‘qitilsa ham buziladi, bundan tashqari yangi hisob, jo‘g‘rofiya, tabiat o‘qitiladiki, bu musulmonlar zehniyatiga xilofdir[3].

Buxoro ulamolari jamiyatda sodir bo‘ladigan har qanday yangilikka qarshi chiqib, eski tartiblarni, ayniqsa, eskicha maorif tizimini saqlab qolish uchun jon-jahdi bilan kurashgan. 1920-yil sentabrda amir hokimiyati tugatilgandan keyin ham, Buxoroda eski usul maktablari keng miqyosda faoliyat olib boradi. Buni 1921-yil 30-oktabrda bo‘lib o‘tgan Butun Buxoro muallimlarining ikkinchi qurultoyida ko‘rib chiqilgan masalalar misolida ham ko‘rish mumkin. Yig‘ilish kun tartibiga kiritilgan 4-masala “Eski maktab va uning islohoti” bo‘lib, unda eski maktablarni o‘rganish bo‘yicha tashkil etilgan maorif komissiyasining eski maktabdagi ta‘lim jarayoni tahlili va ularni isloh qilish zarurligi haqida bildirgan fikr-mulohazalari eshitiladi. Komissiya a‘zolaridan Odiliy so‘zga chiqib, Buxorodagi xalqning eski maktablarga rag‘bat qilishlarining sabablari, eski maktabda o‘qigan bolalarning 6-7 yil o‘qisa ham xat-savodi chiqmaganligini keng ravishda bayon qilib, bu maktablarni isloh qilish yo‘llarini ko‘rsatib o‘tadi. Ma‘ruzasi davomida eski maktablardagi ta‘lim jarayonini quyidagicha ta‘riflaydi: “Kichik bir hujra ichida 55 bola shu maktabdagi domullaning gapiga qaraganda, bolalarni bittadan yoniga chaqirib olib, usuli qadim bilan o‘qitar ekan. Bunday usul bilan 55 bolaga 55 marta dars berish mumkinmi, deb so‘ralganda, domulla 4-5 nafariga dars beraman-u, boshqalarini osmondan farishtalar tushib o‘qitadur, javobini berdi”. Shuningdek, eski maktab va yangi maktabning farqini ota-onalarga anglatish zarurligi, tadrijiy yo‘l bilan xalqni yangi maktablarga jalb qilish kerakligini ta‘kidlaydi[10].

Odiliy ma‘ruzasini eshitgan qurultoy a‘zolaridan ba‘zilar unga qarshi chiqib, “eski maktablarni isloh qilamiz” degan fikrlarini behuda va bo‘sh so‘zlar deydi. Ular eski maktablar to‘g‘ridan-to‘g‘ri yangi maktablar qatoriga ko‘chirilishi kerakligini uqtirgan.

Buxoroda ta‘limning keyingi bosqichi madrasa tahsili hisoblangan. Sharqshunos olim Anke fon Kyugelgen Buxoro amirligidagi madrasalarda o‘qitiladigan kitoblar soni haqida yozar ekan, u Xanikov va Demezov ma‘lumotlariga tayanadi. Xanikov o‘z asarida Buxoro madrasalarida yuzdan ortiq kitob o‘qitiladi deb ta‘kidlagan bo‘lsa [9], Demezov madrasalarning biridagi o‘quv jarayonida bir oy dan oshiq ishtirok etadi va o‘nga yaqin muallif hamda kitob nomini sanab o‘tadi[8].

Muhokama va tahlil. Buxoro madrasalarida nafaqat amirlikdagi yoshlar, balki Rossiyaning musulmon o‘lkalari, Xiva xonligi va Qo‘qon xonligidan ham ko‘plab talabalar kelib tahsil olganlar. Bu esa o‘z navbatida amir tomonidan madrasalar faoliyatini to‘liq nazorat qilish mas‘uliyatini talab qilardi. Ularga ajratiladigan vaqf mulklarini tasdiqlab muhr bosishdan, mudarrislar ilmiy salohiyati hamda malakasini tasdiqlashga bo‘lgan barcha ishlar amir tomonidan nazorat qilingan. Vaqf hujjatlari qozi tomonidan rasmiylashtirilgan va unga qozining muhri qo‘yilgan. Ba‘zi hujjatlarni rasmiylashtirishda mufti, sadr va boshqa guvohlar ham qatnashgan. Buxoro shahri va uning atrofida bir farsax masofada joylashgan o‘quv dargohlarining iqtisodiy faoliyatidagi muammolarni sadr hal etgan. Zarur holatlarda hujjat nizomida ko‘rsatilgan moliyaviy ishlar bilan bog‘liq masalalarni taftish qilgan. Xizmatlari uchun ayrim madrasalardan “sadrona” olgan[4].

O‘qish jarayonini mutavalli boshqarib borgan. Madrasa mutavallisi hujjatda belgilangan Nizom asosida tayinlangan va uning mehnat haqi aniq belgilab qo‘yilgan. Madrasada bosh mudarris va fanlar yo‘nalishda mudarrislar faoliyat olib borgan. Ularga madrasadan tushadigan vaqflar hisobidan maoshlar aniq belgilab qo‘yilgan. Madrasadagi eng nufuzli kishi mudarris hisoblangan. Xalq orasida uning obro‘-e‘tibori katta bo‘lgan. Bu esa mudarrisning zimmasiga katta mas‘uliyat yuklagan.

Buxoro madrasalarida tahsil oluvchilar yashashi uchun mablag‘, joy, ba’zi hollarda boshqa yordamchi rag‘batlar bilan ta’minlangan. Talabalar adno (quyi), avsat (o‘rta) va a’lo (yuqori) toifalarga bo‘lingan edi. Adnoga 1 hissa, avsatga 1 hamda adnoga beriladigan 1 hissa miqdorining yarmicha, a’loga 1 va avsatga beriladigan hissa miqdorining yarmicha haq berilgan. Talaba noshar’iy ishlar bilan mashg‘ul bo‘lsa, axloqida nuqsonlar sezilsa, uzrli sababsiz ikki oy-u o‘n kun o‘qishni tark etsa, o‘quv faoliyatidan chetlatilgan[4]. Shu o‘rinda bir jihatni ta’kidlash o‘rinli bo‘lardiki, XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Buxoroda faoliyat yuritgan katta-yu kichik madrasalar soni bilan bog‘liq ma’lumotlar o‘z davri mualliflarini asarlarida turlicha raqamlarda talqin etilib, bu raqamlar 400 tadan, 350 tagacha ekanligi qayd etilgan. Yana bir jihatki, uch bosqichli bo‘lgan (oliy, o‘rta, quyi) madrasalar soni ham bir xil raqamlarda berilmagan.

Buxoro madrasalarida tafsir, hadis, fiqh, kalom, usul, sarf-u nahvdan iborat shariat ilmlari, shuningdek, ilmi hikmat (mantiq) o‘qitilgan. Barcha madrasa talabalarining soni 3-4 mingtani tashkil qilgan. Ularga tahsil beruvchi mudarrislar soni 800 nafardan iborat bo‘lgan. Muhammad Ali Baljuvoni madrasa mudarrislarini 3 guruhga bo‘lib, Buxoroyi sharifning a’lo darajali mudarrislariga qozi ul-quzzot, raisi kalon, shayx ul-islom, oxund, a’lam va mufti askarlarni kiritgan. Bundan tashqari, shariat fatvolari sohasidan dars beruvchi 22 nafar mufti bo‘lib, ular o‘rta darajali mudarrislar hisoblangan. Ular sudurlik, sadrlik, shayx ul-islom, naqiblik, miri asadlik mansabini egallashlari mumkin bo‘lgan. Bular umumiy imtihondan so‘ng, “Hidoyai sharif”ni o‘qib tugatishlari bilan amir buyrug‘iga ko‘ra dahyak (ushr) berilgan, biror-bir davlat lavozimiga tayinlangan. Dahyakdor bo‘lish Buxoroning islomiy qonunlaridan hisoblangan[4]. Bu davrda Buxoroda 13 ta kitobxona, 96 ta qorixonona (qiroatxona) va maktabxona faoliyat ko‘rsatgan. Barcha madrasa, masjid, maktab va qorixonalarga vaqf tayinlangan. Madrasalarning hujralari oldi-sotdi qilingan. Ammo podsholik madrasalari hujralarining oldi-sotdisi taqiqlangan.

Buxoro shahridagi Ko‘kaldosh va Govkushon madrasalari Turon hududida eng yuqori mavqeda bo‘lib, Xiva, Qo‘qon xonliklari va islom olamining boshqa mamlakatlaridan olimlar shu o‘quv dargohiga kelib ta’lim olishga intilganlar[6]. Ushbu madrasada tahsil olayotgan talabalarining ilm darajasi ham boshqalariga nisbatan balandroq bo‘lgan.

Buxoro madrasalarida o‘qish mavsumi 6 oy davom etgan. 21 sentabrda boshlanib, 22-martda yakunlangan. O‘quv yilining bu tarzda belgilanishi mart oyi oxirlaridan dalalarda ekin ishlarining boshlanishi edi. Sentabr oxirlarida hosil yig‘ishtirib olingan. 6 oylik ta’til davrida talabalar dalada ishlab, oilasiga ko‘maklashgan.

Buxoro madrasalarida haftada to‘rt kun (shanba, yakshanba, dushanba, seshanba) dars o‘tilgan. Amir Nasrulloh davrida haftada dars kunlarini ko‘paytirishga urinishlar ham bo‘lgan. Ta’til kunlari hisoblangan chorshanba, payshanba va juma kunlari talaba mavzular yuzasidan berilgan topshiriqlarni bajargan.

Xulosa. 1758–1885-yillar davomida Buxoro amirligida maorif va ilm-fan o‘z davri an’analariga tayangan holda ma’lum ixtisosliklar va yo‘nalishlar kesimida faoliyat ko‘rsatgan.

Mang‘itlar davrida Buxoroda madrasa ta’limida diniy bilimlarga asosiy e’tibor qaratilgan bo‘lib, Erondan boshqa barcha musulmon davlatlaridan talabalar Buxoro madrasalarida kelib ta’lim olishgan. Madrasa ta’limi talabani o‘zlashtirishiga qarab 7 yildan 20 yilgacha davom etgan. Madrasadagi o‘quv dasturlari XIII asrda yaratilgan bo‘lib, XVIII asr oxirlariga kelib, zamon talabalariga javob bermasligi oydinlashib qolgan. Ko‘plab madrasa mudarrisleri o‘z madrasalaridagi o‘quv dasturlari va o‘qitiladigan fanlarga o‘zgartirishlar kiritganlar. Mang‘itlar davrida madrasa talabalarini tajriba almashish, malaka oshirish uchun Turkiya, Hindiston va boshqa musulmon o‘lkalariga o‘qishga yuborilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘iyosiddin. 15-avgust // “Turon” gazetasi.(arab imlosida o‘zbek adabiy tilida) 1912-yil 15-avgust.
2. Yovushev N. Usuli ta’lim va tarbiyadan// “Turon” gazetasi. 1912-yil 12-avgust, № 9.

3. Хўжаев Ф. Бухоро инкилобининг тарихига материаллар. Тошкент: Фан, 1997. – Б.76.
4. Жуманазар А. Бухоро таълим тизими тарихи. – Тошкент: Akademnashr, 2017. – Б.55.
5. Фитрат А. Танланган асарлар. 5 жилдлик. 1-жилд. газетаси. – Тошкент: Маънавият, 2000. – Б. 84.
6. O‘zbekiston Milliy arxivi, I-126-fond, 1-ro‘uxat, 1995-yig‘ma jild, 8-varaq. – 290.
7. Муҳаммад Али Балжувоний. Тарихи нофеий. – Б. 34-35.
8. Демезон П. И. Записки о Бухарском ханстве (отчеты П. И. Демезона и И. В. Виткевича) // Центральная Азия в источниках и материалах XIX - начала XX в. Москва, 1983. – С. 39 – 45.
9. Ханьков Н. Описание Бухарского ханства. Санкт-Петербург, 1843. – С. 281
10. Butun Vuxoro muallimlarining ikkinchi qurultoyi // “Vuxoro axbori” gazetasi. (arab imlosida o‘zbek adabiy tilida) 1921-yil 1-noyabr.